

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**TANIQULOV JONIBEK ASHIRKULOVICH**

**JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA AXBOROT  
TIZIMNING FUNKSIONAL INTEGRATSIYALASHUVI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Oglavlениye avtoreferata dissertasii doktora filosofii (PhD)  
po filosofskim naukam**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philosophical Sciences**

**Taniqulov Jonibek Ashirkulovich**

Jamoatchilik fikrini shakllantirishda media axborot  
tizimning funksional integrasiyalashuvi ..... 3

**Таникулов Жонибек Аширкулович**

Функциональная интеграция медиа информационной системы при  
формировании общественного мнения ..... 19

**Taniqulov Jonibek Ashirkulovich**

Functional integration of the media information system in the formation of public  
opinion ..... 37

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**TANIQULOV JONIBEK ASHIRKULOVICH**

**JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA AXBOROT  
TIZIMNING FUNKSIONAL INTEGRATSIYALASHUVI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fal570 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (w.w.w.samdu.uz va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida(www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yazdonov Ulug'bek Toshmurotovich**  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xajiyeva Maksuda Sultonovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sodiqova Shoxida Marxaboyevna**  
sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40; ye-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov Nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh.Negmatova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**X.A.Djurakulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.R.Samadov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar axborot almashinuv taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon bir tomondan turli sivilizatsion rivojlanish bosqichidan borayotgan davlatlarga – barcha sohalar kesimida funksional integratsiyalashuv imkonini berayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan millatlar, xalqlar va davlatlar o‘rtasiga nifoq soluvchi ayrim “kuchlar” uchun dezinformatsion qurol vazifasini o‘tamoqda. Shuningdek, keng jamoatchilik auditoriyasiga media axborot tarqatuvchi subyektlarning zamonaviy texnik-texnologik jihatdan takomillashayotganligi natijasida, jamoatchilik fikrini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish yo‘llari ochilmoqda. Bu jarayon media axborot vositalaridan (shaxs kamoloti yo‘lida) foydalanish ko‘nikmasini beruvchi konsepsiyani ishlab chiqish va unga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirish masalasi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jahon ilm-fanida media axborot tarqatuvchi institutsional tizim taraqqiyoti imkoniyatlari, yutuqlari, muammolari, ommaviy axborot vositalari tomonidan qo‘llanilayotgan mexanizmlarning inson omiliga ta‘sirini tadqiq etish borasida bir qator ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilib, pragmatik yondashuvlar ilgari surilmoqda. Xususan, media axborot ta‘sirining oshib borishi asnosida jamiyat hayotida qaror topayotgan ijtimoiy muammolar (virtual olamni – inson omili ustidan hukmronligi), shaxs psixologiyasidagi o‘zgarishlar (marginallashuv jarayoni), keng xalq ommasi ongiga milliy mentalitetga xos bo‘lmagan media hurujlarning manipulyatsiya qilinishi bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, milliy va umumbashariy xavfsizlikka, ijtimoiy qarashlar barqarorligiga erishish, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi funksional integratsiyalashuv samaradorligini ta‘minlashga xizmat etuvchi «umummilliy model»ni yaratish mexanizmlarini tadqiq qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda axborot sohasida olib borilayotgan islohotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. “Ommaviy axborot vositalarining haqiqiy to‘rtinchi hokimiyat bo‘lib maydonga chiqishiga erishish, milliy media maydonimizda fikrlar va qarashlar rang-barangligini ta‘minlash bugungi kunda dolzarb vazifa bo‘lib qolayotganini barchamiz yaxshi tushunamiz”<sup>1</sup>. Shu ma‘noda bugungi yoshlarni jamiyat manfaatlari, ijtimoiy taraqqiyot talablariga monand ravishda tarbiyalash, ularga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni milliy mentalitetimizga xos tarzda yetkazish orqali axborot savodxonligini oshirish va axborot hurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Bu esa jamiyat taraqqiyoti yo‘lida xizmat etuvchi barqaror jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot tizimi doirasida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 11 avgustdagi PF-5148-son “Matbuot va axborot sohasida

---

<sup>1</sup> Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б.500

boshqaruvni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” farmonlari, 2019 yil 27 iyundagi PQ-4366-son “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son Qarori bilan qabul qilingan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Media axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o‘rni, ta’sir etish mexanizmlari, shakllanish bosqichlari, taraqqiyot belgilari, shaxs tarbiyasidagi roli, uning pedagogik, psixologik xususiyatlari hamda jamoatchilik fikriga ta’sir etish texnologiyasi falsafiy muammolar obykti sifatida ijtimoiy falsafa kontekstida maxsus o‘rganilmagan bo‘lsada, bu masalalar turkumiga kiruvchi tadqiqotlar, xususan, media axborot ta’sir kuchining antropolik, ontologik, gnoseologik jihatlari borasidagi ilmiy gipotezalarni ko‘rsatuvchi maqolalar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, ommabop risolalar ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilib kelinmoqda. Jumladan, Thomas Schindlmayr, Audun Beyer, Marija Ignjatijević, John Mueller va boshqa G‘arb tadqiqotchilari tomonidan nashr etilgan asarlarda<sup>2</sup> quyidagi ilmiy-nazariy g‘oyalar bo‘yicha xulosalar keltirilgan:

media axborot vositalari yordamida jamoatchilik bilan aloqani o‘rnatish metodikasi;

media shov-shuvlar va jamoatchilik fikri psixologiyasi;

media axborot: demografik o‘zgarishlar, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi qurollanish borasida jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi vosita;

media axborot tarqatuvchi virtual tarmoqlar urush va terrorizm g‘oyalarini jamoatchilik fikriga manipulyatsiya qiluvchi vosita.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan ham media axborot vositalarining jamoatchilik fikriga ta’siri, uni shakllantiruvchi omillar o‘rtasidagi integratsion aloqadorlik komponentlari, zamonaviy media vositalari targ‘ib qilayotgan mafkuraviy g‘oyalar va ularni shaxs psixologiyasiga ta’sir etish mexanizmlari borasida bir qator ilmiy xulosalar<sup>3</sup> keltirib o‘tilgan. Xususan,

---

<sup>2</sup> Thomas S. The Media, Public Opinion and Population Assistance: Establishing the Link. Published by: Guttmacher Institute, 2001; Audun B. Media hypes and public opinion. Publisher: Amsterdam University Press, 2018; Marija I. Boosting armament to fight demographic decline, crime and corruption: public opinion on security. Published by: Belgrade Centre for Security Policy, 2020; John M. Public opinion on war and terror. Publisher: Cato Institute, 2021.

<sup>3</sup> Меркулова О.В. Средства массовой информации как политический инструмент формирования общественного мнения в современной России. –М., 2004; Акимова И.А. СМИ как фактор формирования идентичности личности в обществе.–М., 2009; Гуржий Д.А. Влияние СМИ на формирование общественного мнения. –М.: Молодой ученый, 2015; Румин И. Информация и общественное мнение. –М.: Альпина Паблицер, 2015; Николай Е.Влияние информации сми на формирование общественного мнения. –М., 2021.

Merkulova Olga Vasilyevna, Akimova Irina Aleksandrovna, Gurjiy Darya Aleksandrovna, Rumin Islam, Nikolay Yevdokimovlar tomonidan quyidagi ilmiy-nazariy gipotezalar ilgari surilgan:

ommaviy axborot jamoatchilik fikriga siyosiy ta'sir o'tkazuvchi vosita sifatida;

ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy sohalarni boshqaruvchi vosita sifatida geosiyosiy maydonga chiqishi;

zamonaviy jamiyatda inson bir vaqtning o'zida turli tomondan, masalan, gazeta, jurnal, radio, televideniye, internet tarmoqlari orqali ijtimoiy ta'sirga uchrashi, ulardan himoyalanih borasidagi jamoatchilik fikri sotsiologiyasi;

ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik fikrini o'zgartirish, boshqarish va ma'lum maqsad sari yo'naltirish;

media axborot aholiga pozitiv yoki negativ ma'lumotlarni ishonchli tarzda yetkazuvchi va shu orqali jamoatchilik fikrini boshqaruvchi vositadir.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham jamoatchilik fikrini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, xususan media axborot ta'siri borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, pedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqa yo'nalishlar kesimida samarali ilmiy ijod etib kelayotgan Hasanov Baxtiyor Madaminovich, Alimov Beruniy Sulstonovich, Qarshiyev Baxtiyor Egamqulovich, Kodirov Nodirbek Mamasoliyevich va boshqa tadqiqotchilar tomonidan quyidagi<sup>4</sup> natijalar olinmoqda:

jamiyat hayotidagi barcha sohalarga katta ta'sir ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalarining sotsiumdagi o'rni va rolini o'zgartirayotgan global axborotlashgan jamiyatning shakllanishi muammolari;

tobora axborotlashib borayotgan bugungi davrda – yangi O'zbekiston mavqeini yanada mustahkamlash, jamiyat xavfsizligi va barqarorligi tushunchalari mohiyatini o'rganish hamda bu jarayonga ta'sir ko'rsatadigan mediata'limning ijtimoiy hayotdagi o'rniga baho berish;

global axborot madaniyatini harakatlantiruvchi motivlar va uni boshqarishning siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish, natijalarini transformatsiya qilish kommunikatsiyasi va infrastrukturasi tizimini rivojlantirish muammolari kontekstida tadqiqotlar olib borilgan. Biroq yuqorida keltirib o'tilgan xulosalar jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi motivlar, xususan, media axborot vositalarining o'rni borasidagi gipotezalarni jamlashga yetarlicha asos bo'la olmaydi. Shu bois, tadqiqot ishida jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot vositalari o'rtasidagi funksional integratsiyalashuv xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish hamda asoslab berish ko'zda tutilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur

<sup>4</sup> Xasanov B.M. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланишида оммавий ахборот воситалари фаолиятини такомиллаштириш. Дисс. Автореферат. 2018; Алимов Б.С. Хорижий ва миллий оммавий ахборот воситаларида Ўзбекистон имижини яратиш тамойиллари ва истиқболи (1991-2017 йиллар ОАВ материаллари мисолида). Дисс. Автореферат. 2018; Қаршиев Б.Э. Жамият хавфсизлиги ва барқарорлигини таъминлашда медиатаълимнинг ўрни. Дисс. Автореферат. 2020. Кодиров Н.М. Ўзбекистон ёшларида ахборот маданиятини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Дисс. Автореферат. 2021.

dissertatsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son “O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning falsafiy asoslari” nomli tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot tizimning funksional integratsiyalashuvi xususiyatlarini aniqlash va ularni jamiyat manfaatlariga moslash bo‘yicha konstruktiv taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot vositalarining obyektiv va sub’yektiv sabablarini aniqlash;

media axborot vositalariga – jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi obyekt sifatida qarashning tarixiy zaruriyatini asoslash;

media makonida axborotni harakatlantiruvchi motivlar, mexanizmlar va ularni boshqaruvchi sub’yektiv vositalarning funksional integratsiyalashuv xususiyatlarini topish;

jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot institutsional tizim elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tendensiyalarini alohidalik, umumiylik va maxsuslik kategoriyalari kontekstida tahlil qilish;

media axborot vositalariga falsafiy fenomen sifatida qarab, uning rivojlanish qonuniyatlarini matematik modelga solish.

mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirishda media axborot vositalaridan samarali foydanish mexanizmlariga doir konstruktiv amaliy takliflar berish.

**Tadqiqotning obyektini** jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot vositalari o‘rtasidagi funksional integratsiyalashuv xususiyatlarini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, taqqoslash, umumlashtirish, matematik modellashtirish, qiyosiy tipologik, faktorial tahlil, sotsiometrik (anketali) kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

zamonaviy gazeta, jurnal, televideniye va media tarmoqlarning jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi konstruktiv ahamiyati hamda ularning destruktiv holatlarni yuzaga keltiruvchi obyektiv va subyektiv sabablarining ijtimoiy mohiyati ochib berilgan;

jamoatchilik auditoriyasida media axborotni transformatsiya qiluvchi tizim barqarorligida kuzatilayotgan passivlik, loqaydlik, bepisandlik kabi permanent muammolarni jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali bartaraf etish zarurati mantiqiy dalillangan;

jamoatchilik fikri shakllanishiga ta’sir etuvchi media axborot omillari o‘rtasidagi funksional integratsiyalashuv xususiyatlari matematik modellashtirilib, «xi2 mezon» metodini ijtimoiy fanlar tadqiqotlarida qo‘llash ijtimoiy muhit ta’siri, ideal xulq-atvor kabi sotsiyostrukturaviy determinantlar darajasini o‘rishiga xizmat qilishi isbotlangan;



jamoatchilik fikriga ta'sir etuvchi media axborot tizim elementlari (rasmli, chizmalı, diagrammalı axborotlar)ning ochiqlik, shaffoflik, tezkorlik kabi obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari (jamoatchilik) o'rtasidagi korrelyasion aloqadorlikning miqdor va sifat o'zgarishlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot vositalari o'rtasidagi funksional integratsiyalashuv xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy xulosalar umumlashtirilgan hamda aniqlashtirilgan;

media axborot ishlab chiquvchi elementlar – transformatsiya qilish jarayonida jamoatchilik fikrini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish borasida katta imkoniyatlarga ega ekanligi ilmiy-nazariy asoslangan hamda pragmatik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot tizim elementlariga doir ma'lumotlar ilmiy tadqiqot xulosalariga, sohaga oid qonun va me'yoriy hujjatlarda keltirib o'tilgan vazifalarga, ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan konsepsiyalardagi yangi konseptual g'oyalarga tayanilgani, ilmiy izlanishda obyektivlik va sistemaviylik prinsiplarining mavjudligi, tadqiqot natijalari manfaatdor tashkilotlarning amaliy faoliyatida aprobatatsiyadan o'tkazilgani, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi to'g'risida tegishli tashkilotlardan tegishli xulosalar olingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, jamoatchilik fikrini media axborot elementlari ta'sirida shakllantirishga doir ilmiy tasavvurlarni yangi g'oyalar, argumentlar bilan boyitilgani, olingan natijalar asosida media axborot vositalarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, dissertatsiyada ilgari surilgan g'oyalar, nazariy xulosa va amaliy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari Agentligi, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'tiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda, xususan, darslik va o'quv qo'lanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Media axborot vositalarining jamoatchilik fikrini tizimli shakllantirishdagi o'rni borasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

zamonaviy gazeta, jurnal, televideniye va media tarmoqlarning jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi konstruktiv ahamiyati hamda ularning destruktiv holatlarni yuzaga keltiruvchi obyektiv va subyektiv sabablarining ijtimoiy mohiyatiga doir taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining O'zbekiston Respublikasida 2021 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturinig II yo'nalishiga oid "O'zbekistondagi yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini keng targ'ib

qilish, “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g‘oyasini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan umummilliy harakatni yuzaga keltirish chora-tadbirlari” mavzusidagi 9 bandi ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022 yil 1 apreldagi 02/02/502-son ma‘lumotnomasi). Natijada Markazning targ‘ibot ishlari samaradorligini oshirishga va aholini media axborot tizimi bilan bog‘liq bilimlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

jamoatchilik auditoriyasida media axborotni transformatsiya qiluvchi tizim barqarorligida kuzatilayotgan passivlik, loqaydlik, bepisandlik kabi permanent muammolarni jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali bartaraf etish zaruratiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining “Yo‘l xarita”sini va “O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni talabiga muvofiq rahbarlarning nogironligi bo‘lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish tizimini takomillashtirish borasidagi mas‘ulligi va ular tamonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022 yil 29 martdagi 02-12-08-1166-son ma‘lumotnomasi). Natijada Madaniyat vazirligi tasarrufidagi tashkilot va muassasalar vakolat doirasiga kiruvchi chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ilmiy nazariy va konstruktiv asos sifatida xizmat qilgan;

jamoatchilik fikri shakllanishiga ta‘sir etuvchi media axborot omillari o‘rtasidagi funksional integrasiyalashuv xususiyatlari matematik modellashtirilib, «xi2 mezon» metodini ijtimoiy fanlar tadqiqotlarida qo‘llash ijtimoiy muxit ta‘siri, ideal xulq-atvor kabi sotsiyostrukturaviy determinantlar darajasini o‘shirishga xizmat qilishga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Samarqand viloyati boshqarmasining 2021yil yanvar-dekabr oylariga mo‘ljallangan “Mahallabay” targ‘ibot tadbirlari dasturi loyihasini va Samarqand shahridagi yoshlar markazi binosida “Yoshlar media markazi”ni tashkil etish Nizomini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022 yil 9 iyuldagi 4-13-23-1691-son malumotnomasi). Natijada yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarga munosabatini yanada va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qilgan;

jamoatchilik fikriga ta‘sir etuvchi media axborot tizim elementlari (rasmli, chizmalı, diagrammalı axborotlar)ning ochiqlik, shaffoflik, tezkorlik kabi obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari (jamoatchilik) o‘rtasidagi korrelyasion aloqadorlikning miqdor va sifat o‘zgarishlari aniqlanganligiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «O‘zbekiston» teleradiokanalida 2021-2022 yillarda efirga uzatilgan “O‘zbekiston yoshlari”, “Ta‘lim va taraqqiyot” va “Millat va ma‘naviyat” nomli dasturlar ssenariysiini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston» teleradiokanali» davlat muassasasining 2022 yil 13 iyundagi 04-36-891-son ma‘lumotnomasi). Natijada kishilarni voqelikka munosabati jarayonida media axborot vositalarining butun jamiyatga ta‘sir etishi borasidagi bilimlarini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta (6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘qqizta paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 149 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari, Dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi hamda uning xorijiy ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Media axborot tushunchasi, tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlari”** deb atalgan birinchi bobida “Media axborot tushunchasining mazmun-mohiyati, funksiyalari va shakllanish xususiyatlari”, “Media axborot elementlari va ularning funksional integrasiyalashuvi”, “Sharq va G‘arb tadqiqotlarida media axborot bosqichlari borasidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar”ni o‘z ichiga olgan uchta paragraf kesimida media axborot tizim elementlari hamda jamoatchilik fikri fenomeni falsafaning ob‘yektivlik va sub‘yektivlik, ijtimoiy makon va tarixiy zamon, alohidalik, maxsuslik va umumiylik, sabab va oqibat, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalar nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ushbu bobida tadqiqot jarayonida olingan natijalar umumlashtirilib, quyidagi xulosalarga kelingan:

Birinchidan, media axborot – bugungi zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrini boshqaruvchi transformator vazifasini o‘tovchi tizim bo‘lib, o‘zida turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositalarini jamlaydi. Media axborotga fenomen sifatida qaralsa, uning mazmun-mohiyati yanada ochiq lanadi. Masalan, media axborot o‘zida maxsus auditoriya hosil qilish imkoniyatiga ega murakkab tizim bo‘lib, uning murakkabligi “oddiylikdan maxsuslikka, maxsuslikdan umumiylikka o‘tish” mexanizmiga tayanishi bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, media axborot vositasi axborot almashinuvida asosiy rol ni o‘ynab, tashuvchi, yetkazuvchi, o‘zgartiruvchi va moslashtiruvchi funksiyalarni amalga oshirish jarayonida sifat jihatidan o‘zgarib borishi, uning shakllanish bosqichidagi beqarorligini ko‘rsatib, media axborotga bo‘lgan jamoatchilik fikrini doimiy o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, media axborot xizmatlarining bugungi globallashuvi natijasida kuchayib borayotgan dezinformasion axborotlar oqimi, media axborotga bo'lgan inson ehtiyojini chuqurroq o'ylab ko'rishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, yangi ommaviy axborot vositalari, xususan media axborot tarqatuvchi tizim tomonidan taqdim etilayotgan «keng qamrovli axborot bazasi» – segmentasiya darajasisiz ommaviy auditoriyaga qaratilgan bo'lib, bu bir tomondan jamoatchilik fikri auditoriyasini osongina zabt etish imkonini berayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun «kam xarajat qilib, ko'p foyda olish» imkoniyatini bermoqda.

To'rtinchidan, media axborot tarqatuvchi tizim elementlari son jihatdan ko'payish va takomillashuvi shu tariqa rivojlanib boraversa, yaqin kelajakda «inson omilini boshqarish» uchun «davlat hokimiyati» darajasidagi kuchlarga ehtiyoj qolmaydi. Chunki, virtual olamning kengayishi hamda inson omili ta'sirining kamayishi natijasida: tezkorlik, tejamkorlik, universallashtirish oshib boradi.

Beshinchidan, texnika taraqqiyoti va shaxs kamoloti o'rtasidagi “muvozanat ko'prigi”ni ta'minlashga erishilmasa, yosh avlod ongiga “virtual boshqaruv” singib boradi. Ularda aksincha real hayotdan uzoqlashuv kuzatilib, shaxs ongida bosma axborot beruvchi makonga nisbatan “shubha” kayfiyati qaror topadi. Shu sababli, media axborot olamidan samarali foydalanishga erishish – tadrijiy jamoatchilik fikrini shakllantirishga erishishning eng maqbul yo'li – “oilaviy tarbiya”, “mahallabay tarbiya”, “davlat va jamiyat tarbiyasi” bo'lib, uni amalga oshirish mexanizmi – millatning milliy ma'naviy mentalitetidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Oltinchidan, hozirgi dunyo media makonida axborot ta'minoti ma'lum maqsadga yo'naltirilgan hamda bir tomonlamaligi ehtimoli yuqori bo'lishi tabiiy holdir. Ammo axborot dunyo jamoatchiligiga aynan shu kuchlar ta'sirida ishlab chiqilgan talqinda yetkazilishiga qarshi kurashish uchun, avvalo jamoatchilik fikrini shakllantirish kerak bo'ladi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar samaradorligi sezilmayotganligi ham haqiqat. Masalan, O'zbekiston sharoitida mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilayotgan mexanizmlarning hozirgi shakli, ularning muayyan tizimga solinganligini ko'rsatib, bu “qolip” bilan media axborot vositalari ta'siriga doir ilmiy nazariy bilimlarimizni jahon standartiga tenglashtirish qiyin kechadi.

Yettinchidan, globallashtirish sharoitida media axborot dunyosida mutlaq egalikka intilish kayfiyati yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Buning xalqaro mediamakonda axborotning monopollashuviga yo'l ochilishi, ayrim hollarda media axborot ta'siri qudratli davlatlarning «qudratli quroliga» aylanayotganligidan ham ko'rish mumkin. Bu davrda ijtimoiy hayotimizda ro'y beradigan har qanday o'zgarish – jamoatchilik fikriga jiddiy ta'sir etishi mumkin. Shu sababli, dinamik rivojlanayotgan tizimda, shu tizimga moyil bo'lgan jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi mexanizmlarni ishga solish, eng maqbul yo'ldir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Jamoatchilik fikri shakllanishida media axborot tizim ta'sirini o'rganishning ilmiy-nazariy, metodologik asoslari**” deb nomlangan. Tadqiqotning ushbu qismida jamoatchilik fikriga ta'sir etuvchi omil-

larning rivojlanish darajalari “Jamoatchilik fikrini o‘rganish metodlari va ularni media axborot tizim ta’siriga bog‘lash metodologiyasi”, “Media axborot motivlarining jamoatchilik fikri psixologiyasiga ta’sir etish mexanizmi”, “Media axborot makonini turkumlashtirish tamoyillari va asosiy yo‘nalishlari” kesimida tahlil etilib, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot vositalarining funksional integrasiyalashuv xususiyatlari va tendensiyalari asoslab berilgan. Bob so‘ngida quyidagi ilmiy nazariy, metodologik va praksiologik xulosalari berilgan:

Birinchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot yetkazishga qaratilgan «media tadqiqot» usullari tadqiqot loyihasini amalga oshirishning amaliy prosyedralari hisoblanib, ushbu usullar tarkibiga media ma’lumotni kontent tahlil qilish, so‘rovlar, fokus-guruhlar, eksperimentlar va ishtirokchilarni kuzatish orqali ta’sir etish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda media axborotni tahlil qilish – bu aloqa mazmunini tizimli, miqdoriy tahlil qilish texnikasini o‘rganish uchun muhim mexanizm hisoblanib, u kontent tahlilini o‘tkazishda duch keladigan muammolarni hal qilishni ta’minlaydi va respondentlar texnikani osongina tushinishlari va qo‘llashlari uchun moslashtirilgan metod hisoblanadi.

Ikkinchi, onlayn va ijtimoiy media tadqiqotlari asosan innovasiyalar sohasining yetakchilari tomonidan qo‘llaniladigan uslub bo‘lib, uning jamoatchilik fikri shakllanishiga bog‘liqligi shundaki, bu metod yordamida nazariya va amaliyot bo‘yicha yig‘ilgan media axborotlarni onlayn tadqiqot hamjamiyatlari orqali hamjamiyat panellariga, blog konchiligiga, ijtimoiy tarmoqlarga, mobil tadqiqot paneliga, elektron etnografiya bosqichlariga yetkazish imkoni mavjud. Shu sababli, jamoatchilik fikrini tashkillashtiruvchi, boshqaruvchi va nazorat shaklini olib boruvchi media axborot tizimi nazariyani amaliyot bilan integrasiyalashtirgan holda media tadqiqotlarida har bir usul doirasida o‘tkaziladigan tadqiqot va tadqiqot natijalarini sharhlash bo‘yicha bosqichma-bosqich ko‘rsatmalar berib borish asnosida, tarixiy voqealarni chuqur muhokama qilish natijasida jamoatchilik fikriga psixologik ta’sirni amalga oshiradi.

Uchinchi, jamoatchilik fikriga media axborot orqali ta’sir etishning eng ommabop usuli “axborot matnidan yashirin ma’noni o‘qish” metodi hisoblanadi. Bu metod orqali jamoatchilikka axborot «niqobli axborot» shaklida yetkazilganligi sababli, uning (media axborot) asl maqsadi oshkor etilmaydi. Demak, jamiyatning bugungi dolzarb vazifalaridan biri – media matnlarda axborotni taqdim etishning texnik usullarini tahlil qila oladigan yoshlar dunyoqarashini shakllantirishga xizmat etuvchi fan turkumlarini oshirishdir.

To‘rtinchi, jahonda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarning keskinlashuvi, jinoyatchilikning misli ko‘rilmagan darajada o‘sishi va uning ijtimoiy xavfliligining kuchayishi, huquqiy nihilizm, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarining tanazzulga uchrashi sharoitida media axborot vositalarining psixologik ta’siri yanada oshib bormoqda. Ya’ni psixozanaliz orqali media axborotni ijtimoiy-psixologik ta’sirining turli jarayonlardan turib jamoatchilik fikri shakllanishidagi o‘rnini o‘lchash mumkin. Masalan, media axborot vositalari tomonidan ulug‘langan, o‘z instinktlari va ehtiyojlarini osongina va har qanday vosita bilan ishonchli tarzda qondiradigan, jamoatchilik xohlagan "ongsiz taranglik" yo‘qligini ta’kidlaydigan media – tomoshabinlarga o‘zlarining "Super-

Men” uslubida ta’sir etib, jamoatchilik bilan munosabatlar bo’yicha barcha mas’uliyatni o‘zidan soqit qiladi.

Beshinchidan, zamonaviy jamiyatning bugungi imkoniyatlari natijasi yuzaga kelgan media axborot vositalaridan foydalanish madaniyati bo’yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Buning uchun jamoatchilik fikriga individual yondashuvni amalga oshirish eng to’g’ri yo’l hisoblanadi. Bunday tajriba – shaxsda axborot-pedagogik madaniyatni shakllantirish imkonini beradi.

Oltinchidan, ijtimoiy tarmoqlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, har bir kishi ma’lumot manbai bo’lishi mumkin, an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan farqli o’laroq media makonda har kim xohlagan vaqtda ijtimoiy tarmoqlarda post qoldirishi (media munosabat bildirishi) mumkin. Shu jihatdan ijtimoiy media platformalarida jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi katta imkoniyatlar mavjud. Masalan, mega makonda ma’lumotni qayta ishlashdagi noaniqliklar, xilma-xilliklar, media yangiliklarni analiz-sintez qilishdagi murakkabliklar kabi qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi tizim, bugungi kunda aynan ijtimoiy media tarmoqlari hisoblanadi.

Yettinchidan, mediatizasiya hayotimizga chuqur va tezkor kirib borayotgan, ma’lumotlar hajmi tobora ortib borayotgan yangi global davrga kirib borishimiz bilanoq, media axborot olish imkoniyatlarimiz yanada oshib bormoqda. Ammo bugun vaziyat tubdan o’zgarimoqda. “Digitalizasiya” orqali inson hayotining jadal “mediatizasiyasi” an’anaviy passiv tomoshabinlarning faol ishtirokchilariga aylanishiga imkon tug’ilmoqda. Xususan, auditoriya ko’p hollarda axborot tayyorlash va uzatishda, erkin bahs va muloqot olib borishda faollikni yo’qotmoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi media axborot tizimning funksional integratsiyalashuv xususiyatlari”** deb nomlangan bo’lib, dunyoda, xususan mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonini jamoatchilik ishtirokisiz amalga oshirib bo’lmazligi, bu yo’lda zamonaviy media vositalari ishtiroki qanday bo’lishi kerakligi, ular jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonida qanday shaklda ishtirok etishi zarurligi “Jamoatchilik fikrini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishda media axborot vositalaridan foydalanish usul-vositalari”, “O‘zbekistonda media axborot vositalari taraqqiyoti va ularni jamoatchilik fikri shakllanish dinamikasiga ta’siri”, “Media axborot ta’sirida jamoatchilik fikri shakllanish tendensiyalarini aniqlash” nomli paragraflarda ko’rsatib o’tilgan. Shuningdek, tadqiqotning ushbu qismida har qanday jamiyatning rivojlanish darajasi ham, xarakteri ham, uning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishda aks etishi, uning institusional strukturasi va usul-vositalarida namoyon bo’lishi asoslab berilgan.

Uchinchi bobning ilmiy muammolari tahlilidan quyidagi xulosalar chiqarilgan:

Birinchiidan, jamoatchilik fikri kishilarning voqelikka munosabati jarayonida odamlarning bir-biriga va tabiatga bo’lgan moddiy munosabatlarini aks ettiradi. Media axborot vositalari o’zining butun jamiyatga ta’siri orqali har bir shaxsga

